Abstract. The gradual transition of the Republic of Uzbekistan to an inflation-targeting regime necessitates a fundamental revision of the strategic foundations of monetary policy. This process represents a crucial stage in ensuring macroeconomic stability, controlling price levels, and enhancing the efficiency of financial market operations. The implementation of inflation targeting involves regulating the money supply, improving the interest rate mechanism, and maintaining the stability of the national currency.

The article analyzes the existing challenges of Uzbekistan's monetary policy, the effectiveness of traditional instruments for managing inflation, and the need to optimize them based on modern approaches. It also explores the interrelationship between key monetary policy instruments – open market operations, reserve requirements, and the refinancing rate.

The research results indicate that improving monetary policy can maintain inflation at a sustainably low level, balance economic liquidity, and ensure financial stability. This, in turn, serves as an important factor in increasing the competitiveness and investment attractiveness of the national economy.

Key words: monetary policy, inflation targeting, interest rate, base rate, reserve requirement, exchange rate, liquidity, financial stability.

Аннотация. Постепенный переход Республики Узбекистан к режиму инфляционного таргетирования требует пересмотра стратегических основ денежно-кредитной политики. Этот процесс является важным этапом в обеспечении макроэкономической стабильности, управлении уровнем цен и повышении эффективности функционирования финансового рынка. Введение режима инфляционного таргетирования предполагает совершенствование регулирования денежной массы, механизма процентных ставок и поддержание стабильности национальной валюты.

В статье рассматриваются существующие проблемы денежно-кредитной политики Узбекистана, эффективность традиционных инструментов управления инфляцией, а также необходимость их оптимизации на основе современных подходов. Кроме того, анализируется взаимосвязь между основными инструментами монетарной политики – операциями на открытом рынке, политикой обязательных резервов и ставкой рефинансирования.

Результаты исследования показывают, что совершенствование денежно-кредитной политики позволит поддерживать инфляцию на устойчиво низком уровне, сбалансировать ликвидность экономики и обеспечить финансовую стабильность. Это является важным фактором повышения конкурентоспособности и инвестиционной привлекательности национальной экономики.

Ключевые слова: денежно-кредитная политика, инфляционное таргетирование, процентная ставка, базовая ставка, обязательные резервы, валютный курс, ликвидность, финансовая стабильность.

KIRISH

Pul-kredit siyosatini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasida davlat makroiqtisodiy siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, iqtisodiy barqarorlik, narxlar darajasi muvozanati va milliy valyutaning qadsizlanishini oldini olishda markaziy o'rinni egallaydi. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, monetar siyosatni liberallashtirish va bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida pul-kredit mexanizmlarining zamonaviy tamoyillarga moslashtirilishi dolzarb masalaga aylandi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da inflyatsiyaning yillik darajasini 5 foizdan oshmasligini ta'minlash, xususi sektorning bank tizimidagi ulushini 60 foizga yetkazish, hamda makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlash mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari sifatida belgilangan [1]. Ushbu strategik yo'nalishlar O'zbekistonda monetar siyosatni faqat qisqa muddatli barqarorlikka emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sish modeliga yo'naltirish zarurligini taqozo etadi.

Shunga qaramay, so'nggi yillarda iqtisodiyotda inflyatsiya sur'atlarining yuqori darajada saqlanib qolayotgani, milliy valyuta almashuv kursining o'zgaruvchanligi (volatilligi) va pul massasining tezkor o'sishi monetar siyosatni samarali boshqarish mexanizmlarining yetarli emasligini ko'rsatmoqda. 2024-yilda milliy valyutadagi pul massasining yillik o'sish sur'ati 30,7 foizni tashkil etdi. Bu esa iqtisodiy faollikning oshishi bilan bir qatorda, ortiqcha likvidlik bosimlari va narxlar o'sishining davom etayotganligini ifodalaydi.

Milliy valyuta almashuv kursining volatilligi yuqoriligicha qolayotgani ham iqtisodiy sub'yektlar uchun noaniqlik muhitini kuchaytirib, investitsion qarorlar qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, inflyatsiyani targetlash rejimiga o'tish sharoitida O'zbekiston Markaziy banki tomonidan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, uning transmissiya mexanizmini kuchaytirish va foiz stavkalarining iqtisodiyotga ta'sirchanligini oshirish zarur.

Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan fiskal kengayish va kredit siyosatidagi rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar monetar siyosatning asosiy maqsadlari bilan muvofiqlashtirilmagan taqdirda, inflyatsion bosimning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, pul-kredit siyosatini takomillashtirish jarayoni fiskal barqarorlik, valyuta siyosati va tashqi savdo balansi bilan uzviy bog'liqlikda olib borilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan holatlar shundan dalolat beradiki, O'zbekistonda pul-kredit siyosatini takomillashtirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki institutsional va metodologik yondashuvlarni talab etadi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u monetar siyosatning samaradorligini oshirish, inflyatsion targetlash mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pul-kredit siyosatini takomillashtirish masalasi iqtisodiy nazariyaning markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u iqtisodiyotda narxlar barqarorligini saqlash, bandlikni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan. Ushbu sohada dunyo miqyosidagi ilmiy tadqiqotlar, xususan J. Keyns, M. Fridmen, F. Mishkin, N. Menkyu, shuningdek, zamonaviy o'zbek iqtisodchi olimlari — T. Bobakulov, A. Esanov, O. Namozovlarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

J. Keynsning iqtisodiy g'oyalari, xususan, "umumiy muvozanat nazariyasi" doirasida pulning iqtisodiyotdagi roliga nisbatan ilgari surilgan yondashuvlar zamonaviy monetar siyosat asoslarini belgilab berdi. Keynsning fikricha, tarmoq yoki korxona miqyosida o'rganilayotgan iqtisodiy resurslar miqdorini o'zgarmas deb hisoblash zarur bo'lib, boshqa tarmoqlarning sharoitlari doimiy qoladi degan farazga asoslanadi. Shu bois, pulning o'zi emas, balki ishlab chiqarish hajmini va bandlik darajasini belgilovchi umumiy omillar muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv pulning muomaladagi miqdoridan ko'ra, uning iqtisodiy faollikka ta'sirini aniqlashni talab etadi [2].

M. Fridmen tomonidan ilgari surilgan monetarizm nazariyasi esa pul-kredit siyosatiga ilmiy asos yaratdi. Olim 1959-yilda AQSh misolida pulga bo'lgan talab funksiyasining empirik tahlilini o'tkazgan va natijada pulga bo'lgan talabni belgilovchi asosiy omillarni — real daromad, foiz stavkalari va inflyatsion kutilmalarni aniqlagan. Fridmenning fikricha, iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun Markaziy bankning asosiy vazifasi pul massasining barqaror o'sish sur'atini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. U "doimiy daromad gipotezasi" orqali aholining pulga bo'lgan talabini aniqlovchi asosiy omil sifatida real, doimiy daromadni ajratib ko'rsatgan [3].



F. Mishkinning monetar siyosatga bag'ishlangan tadqiqotlarida ochiq bozor operatsiyalarining roli alohida ta'kidlanadi. Olimning fikricha, bu instrument Markaziy bank uchun eng qulay va moslashuvchan vosita bo'lib, bank tizimidagi likvidlikni tartibga solish imkonini beradi. Mishkin ochiq bozor operatsiyalarining uchta afzalligini ko'rsatadi: ularning nazorat qilinuvchanligi, hajm jihatidan moslashuvchanligi va tezkor qaytariluvchanligi. Aynan shu xususiyatlar Markaziy bankka iqtisodiyotdagi qisqa muddatli likvidlik yetishmovchiligini bartaraf etish imkonini beradi [4].

N. Menkyu esa pulga bo'lgan talabning narxlar o'zgarishi bilan bevosita bog'liqligini asoslab bergan. Unga ko'ra, tovarlar va xizmatlar bahosining oshishi iqtisodiyotda pulga bo'lgan talabni orttiradi, natijada pul taklifi bilan talab o'rtasida yangi muvozanat holati vujudga keladi. Bu holat Markaziy bank siyosatining narxlar barqarorligiga ta'sir etuvchi mexanizmlarini o'rganishda muhim nazariy asos hisoblanadi [5].

S. Kalderon va K. Shmidt-Xebbelning global moliyaviy integratsiya sharoitida olib borgan tadqiqotlari esa, ochiq iqtisodiy tizimlarda pul-kredit siyosatining transmilliy ta'sirini ochib beradi. Ularning fikricha, moliyaviy integratsiya inflyatsiya sur'atlarining pasayishiga olib keladi, chunki kapital oqimlari raqobatni oshiradi va pul massasining o'sishini cheklaydi. Shu bilan birga, ular inflyatsiya va fiskal siyosat parametrlari o'rtasida qisqa muddatli bog'liqlik mavjudligini aniqlashgan [6].

A. Esanov Rossiya misolida Teylor va MakKallum qoidalarini tahlil qilib, Markaziy bank foiz siyosatini belgilashda Teylor qoidasi to'liq amal qilmasligini, MakKallum yondashuvi esa pul agregatlari asosida inflyatsiyani samarali boshqarish imkonini berishini ta'kidlaydi [7].

T. Bobakulov O'zbekiston sharoitida pul-kredit siyosatining indikator sifatida M2 pul agregatini tanlash zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, pul massasining o'sish ko'rsatkichi iqtisodiy faollik bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu Markaziy bank uchun eng amaliy ko'rsatkichlardan biridir. Bundan tashqari, Bobakulov inflyatsion targetlash jarayonida bazaviy inflyatsiya indikatoridan foydalanish zarur, deb hisoblaydi [8].

O. Namozov esa iqtisodiyotda pul taklifini boshqarish bilan bir qatorda, pulga bo'lgan talabni shakllantirish mexanizmlarini ham takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. U ishlab chiqarish sektori, yuqori unumli mehnat, fiskal siyosat va real sektor muvozanatini ta'minlash orqali monetar siyosat samaradorligini oshirishni taklif etadi [9].

Shunga qaramay, o'zbek iqtisodchi olimlarining ko'pchiligi inflyatsiyaning maqsadli darajasiga erishish va pul-kredit instrumentlari o'rtasidagi o'zaro uzatuvchanlik (transmission) mexanizmlarining samaradorligini chuqur tadqiq etmagan. Shu sababli, ushbu yo'nalishda empirik tadqiqotlarni kengaytirish, xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy iqtisodiy modelga moslashtirish ilmiy zarurat sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosatini takomillashtirishning dolzarb masalalarini ilmiy asosda tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, qiyosiy, tahliliy hamda induktiv-deduktiv uslublarga tayangan. Avvalo, Markaziy bank, Moliya vazirligi hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Jahon bankining statistik ma'lumotlari tahlil qilindi. Inflyatsion targetlash siyosatini joriy etish tajribasini o'rganishda xalqaro amaliyot – Polsha, Chexiya, Rossiya va Qozog'iston tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazildi. Empirik ma'lumotlar asosida O'zbekiston sharoitida foiz siyosati, pul massasini tartibga solish va milliy valyuta barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik regressiya tahlili orqali aniqlangan. Shu bilan birga, tadqiqotda hujjatli tahlil va kontent-tahlil usullaridan foydalanilib, davlat dasturlari, Prezident qarorlari hamda strategik konsepsiyalar o'rganildi. Natijada, pul-kredit siyosatini modernizatsiya qilishning ilmiy-amaliy asoslari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining ahamiyati katta bo'ldi. Mazkur qarorda pullar taklifini tartibga solishga qaratilgan quyidagi vazifalar belgilangan:

- pul-kredit siyosatining likvidlikni berish va jalb qilish operatsiyalari o'yicha qo'llanilayotgan foizli instrumentlardan foydalanishni kengaytirish;
- pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanishni takomillashtirish [10].


Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga inflyatsiya darajasini 2021-yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023-yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni (target) o'rnatish yo'li bilan 2020-yilning

1-yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tkazish vazifasi yuklandi [11].

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida inflyatsiyaning yillik darajasi va Markaziy bankning asosiy stavkasi, foizda

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Inflyatsiya darajasi	11,1	10,0	12,3	8,8	9,8
Markaziy bankning asosiy stavkasi	14,0	14,0	15,0	14,0	13,5

1-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, respublikamizda inflyatsiyaning yillik darajasi 2020–2024-yillarda nisbatan yuqori bo'lgan holda, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 1,0 foizli punktga oshgan. Inflyatsiya darajasining tahlil qilingan davr mobaynida yuqori bo'lishi Markaziy bankning asosiy stavkasining ham yuqori bo'lishiga olib kelgan. O'z navbatida, inflyatsiya darajasining va Markaziy bankning asosiy stavkasining yuqori ekanligi respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning foiz stavkalarining ham yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkalari, %

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizning tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2020–2024-yillarda yuqori bo'lgan. Bundan tashqari, milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Shu o'rindata'kidlash joizki, 2018-yilda Markaziy bankning majburiy zaxira siyosatiga jiddiy o'zgarishlar kiritildi: "2018-yil 1-iyundan boshlab tijorat banklari tomonidan majburiy zaxirani shakllantirish jalb qilingan majburiyat va depozitlarning valyuta turidan kelib chiqib, mos ravishda milliy hamda xorijiy valyutada amalga oshirilishi belgilandi. Bundan tashqari, majburiy zaxiraga tortiladigan bazaga jismoniy shaxslar depozitlari kiritildi va majburiy zaxiralar miqdoriga nisbatan o'rtachalashtirish koeffitsienti o'rnatildi.


Depozitlarning muddatlari bo'yicha majburiy zaxiralash me'yorlari qayta ko'rib chiqilib, muddatlari 1 yildan 2 yilgacha, 2 yildan yuqori bo'lgan depozitlar hamda boshqa majburiyatlar uchun ularning valyuta turiga qarab me'yorlar tabaqalashtirildi. Natijada, 2018-yilning may oyida xorijiy valyutaning jami majburiy zaxiralardagi ulushi yil boshidagi 96 foizdan 47 foizgacha pasayib, qo'shimcha 2 trln so'mlik likvidlik majburiy zaxiralarga jalb qilindi.

2018-yil 1-oktabrdan boshlab majburiy zaxiralash instrumentini takomillashtirishning ikkinchi bosqichi amalga oshirildi. Mazkur bosqichda majburiy zaxiralarni faqat milliy valyutada shakllantirish tartibi joriy etilib, yuridik va jismoniy shaxslarning depozitlari bo'yicha zaxiralash me'yorlari bixillashtirildi, ya'ni milliy valyutadagi depozitlar uchun majburiy zaxira me'yorlari pasaytirildi va chet el valyutasidagi depozitlar bo'yicha majburiy zaxira me'yorlari oshirildi."

Biroq, majburiy zaxira siyosatiga jiddiy o'zgarishlar kiritilishiga qaramay, tijorat banklarining xorijiy valyutadagi depozitlariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira stavkasi yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa, o'z



navbatida, tijorat banklarining likvidligiga va depozit bazasining barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasida Markaziy bankning tijorat banklarining xorijiy valyutadagi depozitlariga nisbatan o'rnatgan majburiy zaxira stavkalari, 2024-yil 1-yanvar holatiga

2-rasmda keltirilgan statistik ma'lumotlardan aniq ko'rinadiki, respublikamizda Markaziy bankning tijorat banklarining xorijiy valyutadagi depozitlariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira stavkasi Rossiya va Qozog'istonga nisbatan juda yuqori. Bu esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, tijorat banklarining likvidligiga va depozit bazasining barqarorligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Rossiya va Qozog'istonda majburiy zaxira stavkalarining pasaytirilishi Markaziy bankning qayta moliyalash va valyuta siyosatini takomillashtirish hisobidan yuz berdi. Rossiya Markaziy banki qayta moliyalash instrumentlaridan (overdraft, overnight, diskontli kredit, lombard krediti, garovsiz markazlashtirilgan kredit) kompleks foydalanishni yo'lga qo'ydi. Qozog'iston esa, ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalarga bo'lgan talab va ularning taklifi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minladi hamda inflyatsion targetlash rejimini muvaffaqiyatli joriy etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosatini takomillashtirish bo'yicha bir qator muhim ilmiy xulosalar shakllantirildi. Avvalo, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da inflyatsiyaning yillik darajasini 5 foizdan oshirmaslik hamda xususiy sektorning bank tizimidagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadi belgilangan bo'lib, bu mamlakatda makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Ushbu strategik yo'nalishlar pul-kredit siyosatini tubdan takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pul-kredit siyosati instrumentlarining samaradorligi ularning iqtisodiy jarayonlarga ta'sir darajasi bilan bevosita bog'liq. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real doimiy daromad ko'rsatkichi pulga bo'lgan talabning o'zgarishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ochiq bozor operatsiyalarini rivojlantirish pulga bo'lgan talab va taklifni muvozanatlash imkonini beradi, bu esa monetar siyosatning moslashuvchanligini va boshqaruv samaradorligini oshiradi. Xalqaro tajriba, xususan, global moliyaviy integratsiya jarayonlari inflyatsiya sur'atlarining pasayishiga olib kelishini tasdiqlaydi.

O'zbekiston sharoitida 2020–2024-yillar davomida inflyatsiyaning yuqori darajada saqlanib qolganligi Markaziy bankning asosiy stavkasini yuqori ushlab turish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa tijorat banklarining milliy valyutada berayotgan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining oshishiga sabab bo'lgan. Natijada kredit resurslarining narxi yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa iqtisodiy subyektlarning investitsion faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot doirasida muhim amaliy takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, majburiy zaxira siyosatini takomillashtirish maqsadida tijorat banklarining milliy valyutadagi muddatli depozitlarini majburiy zaxira talabidan ozod etish, xorijiy valyutadagi depozitlarga qo'llaniladigan stavkalarni esa xalqaro amaliyotda qabul qilingan SOFR (Secured Overnight Financing Rate) stavkasiga asoslab belgilash taklif etiladi. Shu bilan birga, majburiy zaxiralar hajmini banklarning milliy valyutadagi "nostro" hisobvaraqlaridagi barqaror qoldiqlarga moslashtirish orqali ularning likvidligiga bo'lgan bosimni kamaytirish zarur.

Ikkinchidan, pul taklifini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish uchun Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari hajmini davlat obligatsiyalari va Markaziy bank qimmatli qog'ozlari emissiyasi hisobidan kengaytirish lozim. Shuningdek, majburiy zaxira siyosati bilan qayta moliyalash siyosati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, kredit resurslariga bo'lgan talab ortgan holatlarda foiz stavkalarining keskin o'sishini jilovlash maqsadida maxsus zaxira fondini shakllantirish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, xalqaro amaliyotga tayangan holda Markaziy bankning qimmatli qog'ozlarini ochiq bozor operatsiyalarining asosiy ob'yektiga aylantirish taklif etiladi. Bu nafaqat tijorat banklari uchun ishonchli investitsiya vositasini yaratadi, balki ularning likvidlikni boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar soliqqa tortilmasligi va ularning daromadlilik darajasi inflyatsiya hamda milliy valyuta qadrsizlanishi omillarini inobatga olgan holda belgilanmog'i zarur.

Aks holda, inflyatsion bosim va devalvatsiya jarayonlari sharoitida Markaziy bank qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligi pasayib, moliya bozorida ishonchning susayish xavfi yuzaga keladi. Shu sababli, pul-kredit siyosatini takomillashtirish nafaqat monetar vositalarni modernizatsiya qilishni, balki ularni fiskal barqarorlik, moliyaviy bozor islohoti va xalqaro integratsiya strategiyalari bilan uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги/www.lex.uz.
2. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. – М.: Гелиос АРВ, 1999. - 352 с.
3. Friedman M. The lag in Effect of monetary policy, journal of Political Economy, Oct. 1961. - P. 237-260.
4. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – С. 485.
5. Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономики. 4-е изд. Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2009. – 544с.
6. Calderon C., Schmidt-Hebbel K. What Drives Inflation in the World//Central bank of Chile Working Papers, 2008. – № 491. – P. 1-20.
7. Esanov, A., Merkl, C., Souza, L.V. Monetary policy rules for Russia. Journal of Comparative Economics 33 – Helsinki: BOFIT, 2004. – 59 p.
8. Бобакулов Т.И. Ўзбекистон Республикасида миллий валюта курсининг барқарорлигини таъминлаш борасидаги муаммолар ва уларни ҳал қилиш йўллари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. авторефер. – Тошкент, 2008. – Б. 27.
9. Намозов О.Ш. Монетарная политика в переходной экономике: концептуальные подходы и программные направления. Автореф. дисс. на соик. уч. ст. д.э.н. – Ташкент, 2001. – С. 24.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 сентябрдаги “Пул-кредит сиёсатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3272-сонли Қарори. www.lex.uz.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 ноябрдаги ПФ-5877 – сонли “Инфляцион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида”ги фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2019 й., 06/19/5877/4036-сон.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100